# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 9

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

doi

TDIU
1931
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 324 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G'afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar ... 21
**Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich**

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari ... 24
**Abdullayev Farxod Ozodovich**

Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari ... 35
**Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna**

Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi ... 41
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari ... 46
**Abdiev Jaxongir Ibragimovich**

Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili ... 53
**Djumaniyazov Marks Quranbaevich**

Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi ... 60
**Shaislamova Nargiza Kabilovna**

Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari ... 67
**Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li**

The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy ... 74
**Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna**

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi ... 79
**Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich**

Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari ... 87
**Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich**

Международный опыт стимулирования инновационной деятельности ... 93
**Абдиуалиева Гулзада Азатовна**

How does foreign direct investment promote economic growth? ... 98
**O'tkirova Bonu Azamat kizi**

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi ... 102
**Umarov Abduvaxob Tursunovich**

Technological Innovations of Electronic Payment Systems ... 107
**Mirkomil Boboyorov Murodullaevich**

Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati ... 115
**Imomov Xolmurod Norqul o'g'li**

O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili ... 119
**Maksudov Abdumalik Xodievich**

Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish ... 124
**G'ofurov Temur Baxrom o'g'li**

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi ... 129
**Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Turizmda innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyatlari ........ 133
**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li**

Davlat budjetining soliqli daromadlari tahlili ........ 139
**Abduraimova Nigora Radjabovna**

Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon ........ 143
**To‘lakov Ulug‘bek Toshmamatovich**

O‘zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) ........ 151
**Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich**

Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области ........ 156
**Гаппарова Майрамхон Зафар кизи**

Sanoatlashuvning ekologik ta’siri va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asoslari ........ 161
**Nosir Maxmudov, Lola Azimova**

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta’sirning nazariy asoslari ........ 167
**Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan**

Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish ........ 173
**Sherxon Tuychiyev**

Savdo korxonalarida ta’minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari ........ 177
**Ergashev Jahongir Baxodirovich**

Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo‘llari ........ 180
**Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich**

Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobining asoslari ........ 184
**Azizova Zilola Lochin qizi**

Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o‘ziga xos jihatlari ........ 191
**Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich**

Suv ekologiyasining asosiy yo‘nalishi va uning fandagi o‘rni ........ 200
**Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi**

Анализ прибыли агропромышленности ........ 204
**Гафурова Азизахон Фатиховна**

Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach ........ 209
**Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna**

An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries ........ 213
**Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli**

Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli ........ 216
**Muxitdinov Ulug‘bek Diyarovich**

Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса ........ 221
**Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич**

Tadbirkorlik kambag‘allikni qisqartirishning asosiy yo‘nalishi ........ 225
**Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich**

Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari ........ 230
**Mirzayev Kobil Nosirjonovich**

Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari ........ 236
**Ismailov Dilshod Anvarjonovich**

Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari ........ 242
**Zarina Ashurova**

Social media marketing strategies for small businesses....247
**Mannonov Shahzod Istam ugli**

Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri....250
**Rajapov Shuxrat Zaripbaevich**

Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari....258
**Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich**

Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении....266
**Муминов Фазлиддин Хусниддин угли**

SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана....279
**Касимова Зилола Гуламиддиновна**

Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari....287
**Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich**

Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni....291
**Mirpulatova Luiza Mansurovna**

Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari....294
**Karabaev Nodir Abduhamidovich**

Значение business city как инфраструктурного объекта....303
**Солиева Умида Алишер кизи**

The potential for the development of wage labor as a factor....308
**Usmanov Ilkhom Achilovich**

Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan....312
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna**

Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari....318
**Mavrulov Ravshan Ne'matjonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING FAOLIYATINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Mavrulov Ravshan Ne'matjonovich**
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
"Iqtisodiyot kafedrasi" o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotining global taraqqiyoti va iqtisodiyotning ijtimoiy maqsadlarga moslashuv darajasining ortib borishi sharoitida kichik biznesning, bir tomondan, ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi mobillik imkoniyatlarining kengligi, ikkinchi tomondan esa real daromad olishning barqaror manbai va ijtimoiy talablarni har jihatdan qondiruvchi subyekt sifatidagi ahamiyati oshib bormoqda.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsulot va yalpi hududiy mahsulot, budjet tizimining soliq tushumlari, korxonalar daromadlari, kichik biznes samaradorligi.

Abstract: This article discusses the increasing importance of small business in the context of the global development of the world economy and the growing alignment of the economy with social goals. On the one hand, small business offers broad mobility opportunities for production development, and on the other hand, it serves as a solid source of real income and an entity that fully meets social demands.

Key words: Gross domestic product and gross regional product, tax revenue of the budget system, enterprise income, small business efficiency.

Аннотация: В данной статье, в условиях глобального развития мировой экономики и повышения уровня соответствия экономики социальным целям, возрастает значение малого бизнеса. С одной стороны, широта возможностей мобильности в развитии производства, а с другой стороны, как надежный источник реального дохода и субъект, отвечающий социальным потребностям, становится все более значимой.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт и валовой региональный продукт, налоговые доходы бюджетной системы, доходы предприятий, эффективность малого бизнеса.

## KIRISH

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar moliyaviy va boshqa sohalarda tegishli imtiyozlar yaratishni o'z ichiga oladi. "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga **e**tkazish" asosiy maqsadlar sifatida belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mesheryakov S.G. ta'kidlashicha, umumiy iqtisodiy samaradorlik kichik korxonaning (ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish) butun iqtisodiy faoliyati natijasini ifodalaydi. Umumiy iqtisodiy samaradorlik mutlaq qiymat bilan tavsiflanadi va mahsulot sifatida – ijobiy qiymat va sof foyda sifatida bo'lishi mumkin. Kichik korxonaning barcha iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash uchun resurs ko'rsatkichi – korxonaning umumiy rentabelligi qo'llaniladi [1].

Xelfert E. o‘z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Menejer uchun korxonaning operatsion faoliyat parametrlari, resurslar samaradorligi (mehnat intensivligi, aktivlar aylanishi) va biznesning rentabellik ko‘rsatkichlari muhimdir. Korxona egalari uning faoliyati samaradorligini foyda taqsimoti va asosiy vositalarga investitsiyalarni qaytarish nuqtayi nazaridan baholaydilar. Kreditorlar uchun korxonaning bozorda barqaror ishlashi va uning rentabelligi bilan bir qatorda likvidlik va moliyaviy leverage to‘g‘risidagi ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega” [2].

S.A. Popov kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari samaradorligini baholash masalalarini ko‘rib chiqib, an’anaviy ko‘rsatkichlarga qo‘shimcha ravishda, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘rsatkichlarini hamda ko‘rsatkichlarni hisobga oladigan kompleks yondashuv asosida davlat qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoji bo‘lgan kichik biznes subyektlarining ulushini hisobga olishni taklif qilgan [3].

L.I. Chubareva infratuzilma nuqtayi nazaridan kichik biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini yanada to‘liq baholash tizimini taklif qilgan [4].

## TDQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif va tavsiyalar iqtisodiyotni globallashuv sharoitida kichik biznes faoliyatini baholashning uslubiy asoslarini tadqiq etishga va uning samaradorligini oshirishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes sohasida samaradorlikni baholash natijalarini sarhisob qilish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ta’sir doirasida o‘zini o‘zi rivojlantirishga amaliy yordam berishi, kichik biznes subyektlarining sonini ko‘paytirish va uni turli sohalarda kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi va iqtisodiyotning davriy siklini ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olimlardan S.G. Mesheryakov mintaqada kichik biznes faoliyatining samaradorligini umumiy tushunchada iqtisodiy samaradorlik va ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan xarajatlar nisbatini ifodalovchi nisbiy qiymat sifatida belgilaydi. Bunday holatda xarajatlar har bir davrda ma’lum bir ishlab chiqarish birligining aniq qiymatini ko‘rsatadi. Joriy xarajatlar (ish vaqti xarajatlari, moddiy xarajatlar va boshqalar) samaradorlik shaklida ifodalanadi.

E. Xelfertning nuqtayi nazariga ko‘ra, kichik biznes samaradorligini tahlil qilish va baholash uchun uning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini baholash zarur. Korxona faoliyatining moliyaviy yoki iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi bir qator ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ular kompleks asosda ko‘rib chiqilishi kerak. Muallif baholovchining pozitsiyasiga alohida e’tibor qaratadi: menejer, egasi yoki qarz beruvchi. Baholovchining maqsadlariga qarab, korxona samaradorligi parametrlarining tizimi ham shakllanadi.

Kichik biznesni rivojlantirishni mintaqaviy va hududiy darajada iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning muhim mexanizmi deb atash mumkin. Kichik biznes jadal iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, mahalliy bozorlarni rivojlantirish va to‘ldirishga hissa qo‘shadi, shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti xarajatlarini (ishsizlik, bozor tebranishlari, inqiroz hodisalari) qoplash imkonini beradi.

G.A. Dreminaning fikricha, yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar kichik biznes samaradorligini tahlil qilish uchun yetarli emas, va shu bilan birga, ustuvor tarmoqlarda kichik biznesni rivojlantirishni tavsiflovchi qo‘shimcha ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini asoslaydi. Xalqaro tajribaga asoslanib, u kichik biznesni rivojlantirishning mintaqaviy dasturlari samaradorligini baholash tizimiga qo‘shimcha qilib, kichik biznesni rivojlantirish ko‘rsatkichlari ro‘yxatini to‘ldirish mumkin bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlarni taklif qiladi[1]:

Kichik biznes subyektlarining samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar alohida ahamiyatga ega:

– Aholi bandligi bilan bog‘liq kichik biznes subyektlarining ulushi;
– Joriy yilda tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining umumiy soniga nisbatan ulushi;
– Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining sifati ko‘rsatkichi;
– Ishchilar soni bo‘yicha ishlab chiqarish sanoatida bandlikdagi kichik biznes subyektlarining ulushi;
– Investitsion faoliyat ko‘rsatkichi;
– Kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi;
– Joriy yilda innovatsion faoliyatda kichik biznes subyektlarining ulushi.

M.A. Volkova fikriga ko‘ra, mintaqaviy davlat hokimiyati organlarining kichik biznes faoliyatini samarali qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tayanchi xilma-xil bo‘lishi kerak. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining normal ishlashini ta’minlash uchun muayyan mezonlarni hisobga olish zarurligini bildiradi. Shu

1 Дремина Г.А. Оценка эффективности региональных программ поддержки малого и среднего бизнеса // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2009. – № 4. – С. 32–37.

nuqtayi nazardan, Volkova kichik biznes sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini baholash mezonlarini to'rtta guruhga ajratishni taklif etgan: yakuniy samaradorlik ko'rsatkichlari, oraliq samaradorlik ko'rsatkichlari, ish jarayonlari ko'rsatkichlari, va sarflangan resurslar ko'rsatkichlari.

Asosiy maqsad kichik biznes subyektlarini o'rganish va uning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar va muammolarni aniqlash bilan birga, hududiy darajada barqarorligini baholashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

– Hududiy darajada kichik korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy yondashuvlarini o'rganish;

– Hududiy darajada kichik korxonalar faoliyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqish;

– Namangan viloyati tumanlaridagi ma'lumotlardan foydalanib, kichik korxonalar faoliyatini baholashning metodologiyasini yaratish;

– Mavjud muammo va ehtiyojlarni hisobga olgan holda, hududiy darajada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha turli choralar tizimini ishlab chiqish.

Ta'kidlash joizki, yuqori tashkilotlar tomonidan kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi dastur va boshqa normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu, o'z navbatida, kichik biznes subyektlarining natijadorligini oshirish imkonini beradi. Ammo hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash orqali amalga oshirilayotgan choralar natijadorligini aniqlash usuliga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Kichik biznes samaradorligini aniq tuman, shahar va viloyat kesimida baholash uchun samarali usullarga e'tibor berilishi lozim.

Bu usul orqali umumiy ma'noda kichik biznes subyektlari samaradorligini aniqlash emas, balki hududiy miqyosida kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlashning tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Hududiy miqyosida kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash orqali mintaqada faoliyat yuritayotgan kichik biznesga ixtisoslashgan subyektlarning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqishga asos solish imkoniyatini beradi:

– muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha reytinglarni tuzish;

– integral ko'rsatkichni ishlab chiqish va yuqori, o'rta past darajasini aniqlash;

– kichik biznes faoliyatining asosiy xususiyatlariga ko'ra hududiy tipologiyasini yaratish;

– nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish (qiyoslanadigan ko'rsatkichlar yordamida munitsipalitetlarni o'rganish);

- hisoblashning soddalashtirilgan metodologiyasini yaratish.

Mavjud usullarning hech biri tadqiqotda aniqlangan mezonlarning umumiyligini qondirmaydi. Shuning uchun biz kichik biznes sohasini samarali tahlil qilish uchun zarur bo'lgan barcha mezonlarga javob beradigan, hududiy darajada kichik biznes faoliyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqishni maqsad qildik.

Taklif etilayotgan metodologiya kichik biznes subyektlari faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning uchta bloki bo'yicha integral indekslarni hisoblashga asoslanadi va ular asosida hududlar tipologiyasi belgilanadi. Tahlil algoritmi besh bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda munitsipal darajada kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning o'rganilgan uslubiy yondashuvlari asosida xususiy ko'rsatkichlar tizimi quyidagi asosiy tamoyillarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi kerakligi belgilandi:

– baholashning kompleksligi, mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasidagi vaziyatni eng muhim tavsiflovchi ko'rsatkichlari;

– individual ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashni o'z ichiga olgan tizimli baholash;

– ko'rsatkichlar tizimining hududiy rivojlanish yo'nalishiga muvofiqligi;

– boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun natijalarning maksimal axborot mazmunini ta'minlash.

Ushbu tamoyillar asosida hududiy kichik biznes subyektlari faoliyatini to'liq tavsiflovchi bir qator muhim ko'rsatkichlar tanlab olindi.

Mezonlarning asosiy guruhlarini aniqlash natijasida mintaqada kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi:

Tuman bo'yicha kichik biznes subyektlari soni

Tumanlarda aholi zichlik darajasi

Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar soni.

Tumanda kichik biznes sohasida band bo'lganlar soni.

Tumandagi kichik biznes subyektining tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlari.

Taqdim etilgan ko'rsatkichlar mavjud rasmiy statistik ma'lumotlar asosida Namangan viloyati tumanlararo kichik biznes faoliyatining turli jihatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bloklari tuzilgan.

Ikkinchi bosqichda standart koeffitsiyentlar ularni taqqoslanadigan shaklga keltirish uchun tanlangan koʻrsatkichlar roʻyxatidan hisoblab chiqiladi (excel dasturi yordamida). Qiymatlarining oshishi mos ravishda ijobiy va salbiy tendensiyalarni koʻrsatadigan toʻgʻridan-toʻgʻri va teskari koʻrsatkichlar uchun standartlashtirilgan koeffitsiyent quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$k_{\text{тўғ}} = \frac{x_j - \min(x)}{\max(x) - \min(x)} \cdot N \qquad (1)$$

$$k_{\text{тес}} = \frac{\max(x) - x_j}{\max(x) - \min(x)} \cdot N \qquad (2)$$

Bu yerda

$X_j$ – ma'lum bir mintaqadagi xususiy koʻrsatkichning qiymati

*max*(*x*) - oʻrganilayotgan obyektlarning butun majmuasi orasida ushbu koʻrsatkichning maksimal qiymati;

*min*(*x*) – oʻrganilayotgan obyektlarning butun majmuasi orasida ushbu koʻrsatkichning minimal qiymati;

*N* - shkala omili (*N* = 1).

Uchinchi bosqichda kichik biznes subyektlarining faoliyatini tavsiflovchi tanlangan uchta blokning har birining indeksi hisoblab chiqiladi, bu har bir koʻrsatkich guruhining standartlashtirilgan koeffitsiyentlarining oʻrtacha arifmetik qiymati hisoblanadi:

$$I = \frac{\sum_i^n = 1\, k_i}{n} \quad (3)$$

Bu erda:

$k_i$ – standartlashtirilgan koeffitsiyent;

$n$ – hisoblash blokidagi koʻrsatkichlar soni.

Toʻrtinchi bosqichda tahlil qilinayotgan munitsipal tizimlarning holatini tavsiflovchi umumiy integral koʻrsatkich shakllanadi. Uni hisoblash (3) formula boʻyicha standartlashtirilgan koeffitsiyentlarni har bir blok boʻyicha integral koʻrsatkichlar bilan almashtirish orqali hududidagi kichik biznes subyektlarining faoliyatini tavsiflash amalga oshiriladi.

Boshqaruv organlarining kichik biznes subyektlari faoliyat koʻrsatish darajasi boʻyicha hududlarning umumiy reytingini tuzishda ehtiyojlarini hisobga olgan holda oʻrganilayotgan hudud tipologiyasini tuzish maqsadga muvofiqdir. Olingan indekslarni tahlil qilish va hududiy subyektlarni kichik biznes faoliyatining turli darajalariga ega boʻlgan guruhlarga taqsimlash uchun oʻrganilayotgan koʻrsatkichning ogʻishini hisoblash kerak (*d*). Ushbu ogʻish quyidagi formula boʻyicha hisoblanadi:

$$d_i = ({}^{x_i}/_{x} - 1) \cdot 100 \quad (4)$$

Bu erda:

$d_i$ - tuman darajasida kichik biznes subyektlari faoliyatining integral koʻrsatkichining ogʻishi;

$x_i$ - tuman darajasida kichik biznes faoliyatining ajralmas koʻrsatkichi;

$x$ - tuman darajasida kichik biznes faoliyatining integral koʻrsatkichining oʻrtacha qiymati.

Tipologiya jarayonida qoʻllaniladigan yondashuvga koʻra, kichik biznes subyektlari faoliyatining oʻrtacha integral koʻrsatkichidan hisoblangan ogʻish qiymatlarining oʻzgarishidan kelib chiqqan holda, kichik biznes faoliyatining turli darajalariga ega boʻlgan 5 ta guruhi shakllantiriladi. (*d*):

1. Yuqori daraja - indikator qiymati 40% dan ortiq.
2. Oʻrtacha darajadan yuqori - koʻrsatkich qiymati 30dan 40% gacha.
3. Oʻrtacha daraja - indikator qiymati 20 dan 30% gacha.
4. Oʻrtacha darajadan past - indikator qiymati -10 dan -20% gacha.
5. Eng past daraja - indikator qiymati 10% dan kam.

Ushbu guruhlashning alohida tumanlarda kichik biznesni rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi, bu esa tadbirkorlik faoliyatini samarali ragʻbatlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni yanada ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun zarurdir.

1-jadval. Namangan viloyati bo‘yicha kichik biznes subyektlari ulushining aholining ming kishiga nisbatan zichlik darajasi[2].

| Zichlik darajasi | Tuman nomlari | Zichlik ko‘rsatkichi |
|---|---|---|
| “Yuqori daraja” | Namangan shahar, Norin tumani | 40% va undan yuqori |
| “O‘rtacha darajadan yuqori” | Uychi tumani, Uchqo‘rg‘on tumani | 30%<$S_{o'yu}$<40% |
| “O‘rtacha daraja” | Chortoq tumani, Kosonsoy tumani, To‘raqo‘rg‘on tumani | 20%<$S_{o'}$<30% |
| “O‘rtacha darajadan past” | Chust tumani, Yangiqo‘rg‘on tumani, Namangan tumani | 10%<$S_{o'p}$<20% |
| “Eng past daraja” | Mingbuloq tumani, Pop tumani, | $S_{ep}$<10% |

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, Namangan viloyati bo‘yicha kichik biznes subyektlarini 1000 kishiga nisbatan zichligi bo‘yicha guruhlarga ajratish orqali maksimal, yuqori, o‘rta va past darajali tumanlarga ajratildi. Past darajali tumanlar Mingbuloq, Pop, Chust, Yangiqo‘rg‘on va Namangan tumanlari bo‘lib, ushbu tumanlarda 1000 kishiga nisbatan zichlik 2018-yilga nisbatan 2022-yilda ham past darajada qolib ketgan. Bunga sabab qilib mazkur tumanlar ixtisoslashuvi qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, bog‘dorchilik deb hisoblash va aholisining ko‘p qismi tashqi mehnat migrantlari ekanligini aytish mumkin. Umuman olganda, kichik biznes subyektlarining bugungi kundagi barqarorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari moliyaviy hamda boshqa resurslar holatini bozor talablariga va ehtiyojlarga mos ravishda ushlab turish uchun barqarorlik ko‘rsatkichlarini doimiy kuzatib borish kerak, ya’ni ma’lum vaqt rejimida tashkilot faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlash zarur.

Yuqorida hisoblangan natijalar kichik biznes subyektlari faoliyatini unga bog‘liq bo‘lgan turli omillarni hisobga olgan holda har tomonlama baholash imkonini beradi. Uning yordamida tumanlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha aniq choralar (mexanizmlar), resurslar manbalari va ularni sarflash yo‘nalishlarini yuqori darajada ilmiy asosda aniqlash mumkin bo‘ladi va bu mutanosib ravishda amalga oshirilishiga olib keladi (2-jadval).

2-jadval. Mintaqada kichik biznes subyektlarining hududiy chegaraviy xususiyati (Namagan viloyati tumanlari kesimida).

| Guruh | KBning umumiy soni | | KB ko‘lami | | KBning moliyaviy samaradorligi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Yuqori | Past | Yuqori | Past | Yuqori | Past |
| 1 | + | | + | | + | |
| 2 | | | + | | + | |
| 3 | | + | + | | + | |
| 4 | + | | | + | + | |
| 5 | + | | | + | | + |
| 6 | | + | | + | + | |
| 7 | + | | | + | | + |
| 8 | | + | | + | + | + |

Sinov natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning ishlab chiqilgan metodologiyasi orqada qolayotgan sohalar va mavjud muammolarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Kichik biznesning moliyaviy samaradorligi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lgan hududlarda kichik biznes subyektlarining ta’minot zanjirlariga integratsiyalashuviga ko‘maklashish, shuningdek, kichik tashkilotlarning shahar xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choralar amalga oshirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini baholash va bu orqali uning samaradorligini oshirish ahamiyati, asosan, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda ko‘zlangan maqsadlarga erishish, iqtisodiy o‘sish uchun zarur

2 Manba muallif ishlanmasi.

shart-sharoitlarni yaratish, mahalliy bozorlarni rivojlantirish va to'ldirishga hissa qo'shish, shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti xarajatlarini qoplash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat va xususiy sektor tomonidan kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy yordam, grantlar va subsidiyalar ajratishni ko'paytirish zarur. Bu kichik biznes subyektlariga o'z faoliyatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni joriy qilishda yordam beradi.

Past rivojlangan hududlarda kichik biznes subyektlarini qishloq xo'jaligi sohasidan boshqa sohalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kerak. Bu jarayonda xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va turizm kabi sohalarni rivojlantirish ustuvor bo'lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarini xalqaro bozorga chiqishlari uchun ko'maklashuvchi xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirish lozim. Bu kichik korxonalar uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratish imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlariga zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarni tatbiq etish orqali ularning samaradorligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish kerak. Shu maqsadda biznes-inkubatorlar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish zarur.

Kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarini ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvi ustida ishlash. Bu kichik korxonalar uchun barqaror hamkorlik va daromad manbalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy va kasb-hunar ta'limi tizimida kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish orqali yoshlarning tadbirkorlikka qiziqishini oshirish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бобоев А.Ч. Тадбиркорлик фаолияти ривожланишининг назарий жиҳатлари ва устувор йўналишлари: иқт. фан. ном. дис. – Т.: 2012.
2. Волкова М.А. Оценка эффективности механизма государственного управления экономикой региона в сфере поддержки малого бизнеса // Вестник Сибирского государственного аэрокосмического университета им. академика М.Ф. Решетнева. – 2009. – № 2. – С. 438–442.
3. Попов С.А. Комплексный анализ оценки эффективности управления программами поддержки малого предпринимательства // Фундаментальные исследования. – 2013. – № 10-10. – С. 2249-2252.
4. Дремина Г.А. Оценка эффективности региональных программ поддержки малого и среднего бизнеса // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2009. – № 4. – С. 32–37.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.